



Milliy G'oya Rivojida Tarixiy Meros Va Qadriyatlar Tizimi

Ishimov Azamat Mamedovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Toshkent filiali katta o'qituvchisi

Annotasiya: Maqolada g'oyalar tarixi, tarixiy meros va qadriyatlar tizimi tahlil qilingan, xususan, tarixiy meros tushunshasi va uning tuzilmasi, tarix va tarixiy qadriyatlar haqidagi turli konsepsiyalar va yondashuvlar, ijtimoiy taraqqiyot natijasida uning rivojlanishi, tarixiy qadriyatlarning milliy g'oya tarixini anglashdagi o'rni, tarixiy ong va milliy ong mushtarakligi va zamonaviy sharoitida uni amalga oshirish omillari haqida keng mushohada qilingan. Shuningdek, maqolada hozirgi kunda tarixiy merosning milliy g'oya tarixini anglashdagi ahamiyati haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: tarixiy meros, qadriyatlar, g'oya, milliy g'oya, milliy ong, milliy mafkura, tarixiy ong va tafakkur, tarixiy xotira, vatanparvarlik.

Системы Историческое Наследие И Ценностей В Развитии Национальной Идеи

Аннотация: в статье анализируется история идей, историческое наследие и система ценностей, в частности, понимание исторического наследия и его структуры, различные концепции и подходы к истории и историческим ценностям, ее развитие в результате социального прогресса, роль исторических ценностей в понимании истории того или иного национального идея, общность исторического сознания и национального В статье также размышляется о важности исторического наследия в понимании истории национальной идеи в настоящее время.

Ключевые слова: историческое наследие, ценности, идея, национальная идея, национальное самосознание, национальная идеология, историческое сознание и мышление, историческая память, патриотизм.

Systems Of Historical Heritage And Values In The Development Of A National Idea

Abstract: the article analyzes the history of ideas, historical heritage and value system, in particular, the understanding of historical heritage and its structure, various concepts and approaches to history and historical values, its development as a result of social progress, the role of historical values in understanding the history of a particular national idea, the community of historical consciousness and national In the article He also reflects on the



importance of historical heritage in understanding the history of the national idea at the present time.

Keywords: historical heritage, values, idea, national idea, national identity, national ideology, historical consciousness and thinking, historical memory, patriotism.

Kirish. Milliy davlatchilikning qayta tiklanishi boy tarixiy-madaniy va ma'naviy merosni o'rganish, qadriyatlarni tiklash imkonini berdi. Tarixni, milliy-madaniy merosni o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'ldi. Tarixiy-madaniy merosga munosabat yosh avlodda Vatan tarixi va milliy merosga bo'lgan hurmat-e'tiborni shakllantirishga, ularda vatanparvarlik, bunyodkorlik tuyg'ularini kuchaytirishga yo'naltirilgani, o'zbek xalqi boy tarixiy merosining umumbashariy ahamiyatini ko'rsatishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Sharq va G'arbda o'zlikni anglash tuyg'usi milliy birlashishga, boshqa xalqlar bilan muloqatga kirishishga turtki bo'lgan. O'zlikni anglash xalqni harakatga keltiruvchi, uyushtiruvchi kuchdir. "Milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim" [1]. Ilm-fan umuminsoniy qadriyatlar ichida eng asosiysidir.

Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar va elatlarning maqsadlariga muvofiq keladi. Xalqlarning madaniy-ma'naviy rivojlanishi, tarixi bir-biriga bog'liq. Umuminsoniy qadriyatlarga insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyoti bilan bog'liq umumbashariy muammolar kiradi. Xususan, ilm-fanni rivojlantirish, tinchlikni saqlash, tabiatni muhofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikni tugatish va hakoza.

Ijtimoiy fikr tarixida tarixiy ongning tarbiyaviy ahamiyati har doim yuksak qadrlangan, chunki unda avlodarning ma'naviy aloqasi, vorisiylikni ta'minlash o'z ifodasini topgan. Ingliz ma'rifatparvari Lord Bolinbrok aytganidek: "Tarix bu misollar oraqli o'qitiladigan, shaxsiy va ijtimoiy hayotning har qanday holatlarida o'zini qanday tutishni o'rgatadigan falsafadir. Shuning uchun ham biz tarixga falsafiy yondashmog'imiz lozim. Tarix hikoya qilayotgan hodisalarga aqlimizni o'rgatib, o'zimizni ijtimoiy hayotga va amaliy faoliyatga tayyorlab borishimiz darkor" [2]. Negaki, axloqiy meyorlarning shakllanishida, insoniy sifatlarning takomillashishida tarixiy ongning roli beqiyosdir.

Tarixiy meros tarixiy ongning shakllanishida muhim rol o'ynaganligi hamda uning vorisiyligi natijasida o'zbek xalqiga xos bo'lgan: a) saxovatpeshalik, b) bag'rikenglik, v) mehmondo'stlik, g) andishalilik, d) kechirimlilik, ye) insonparvarlik, yo) iymon-e'tiqodlilik, j) samimiylilik kabi ijobiy xususiyatlar tarkib topdi. Bu xususiyatlar nafaqat hozirgi kun yoki yaqin o'tmishni o'zida aks ettiradi, balki bu inson hamda uning tarixdagi o'rni haqidagi tafakkur jarayoni bilan bevosita bog'liq[3]. Shu nuqtai nazardan mafkura ham ijtimoiy ongning o'ziga xos shakli, tarixiy taraqqiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lishi bilan birga, unda tarixiy meros va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati mujassamlashgandir.

Asosiy qism. G'oya va mafkuralar rivojlanishini jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy jarayonlar belgilaydi. O'zbekistonning kelgusi taraqqiyotida milliy yuksalish g'oyasi muhim o'rin tutadi. Milliy g'oyani rivojlantirishda, tarixiy ong va tafakkurni



yuksaltirishda tarixiy qadriyatlarni tiklash, madaniy merosni o'rganib, o'zlashtirish, ularni ma'naviy taraqqiyotdagi o'rnini teran anglab yetish muhim o'rin tutadi.

«Qadimiylkda Misrliklardan qolishmaydi»gan (Pompey Trog) xalqimizning qadriyatlari hamisha jahondagi ko'pchilik olimlarning diqqatni tortib, o'tmish merosimizni o'rganishga katta qiziqish bilan qarashgan. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan so'ng bu jarayon yanada kuchaymoqda. Shu tariqa tariximiz, milliy madaniyatimiz turlicha nuqtai nazarlardan turib, har xil talqin qilingan ko'plab manbalar yuzaga kelgan.

Biroq, bu o'rinda, ushbu manbalarning aksariyatida xalqimizning o'tmishi (qolaversa, buguni ham) va madaniyati hamisha ham to'liq yoritilib, obyektiv baholanmaganligini ta'kidlash joiz. Dunyoning turli joylarida muayyan maqsad-muddaolarni ko'zlab tariximizni yozgan boshqa ayrim olimlar yoki o'tmishimizni soxtalashtirgan mustamlakachi sho'rolar zamonidagi fanlar ham milliy madaniy-ma'naviy merosimizni ko'p hollarda to'liq va xolis yoritmagan.

Madaniy meros qanday bo'lsa, davr va avlodlar ham shunday bo'ladi. Mustaqillik yillarida xalqimiz tarixiy merosini tiklash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Tarixiy merosimizga mustamlakachilik davrlaridagi g'ayriilmiy mafkuraviy yondoshuvlarga barham berildi [4]. Zero, xalqimizning boy o'tmish qadriyatlari kishilarimiz ongi va qalbida milliy g'oyani shakllantirib, rivojlantirish g'oyat muhimdir.

Xalqimizning milliy madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlarining katta qismini o'tmish ajdodlarimiz yaratgan falsafiy meros tashkil qiladi. Falsafiy merosimiz Sharq ijtimoiy-falsafiy fikrlari taraqqiyoti tarixida juda katta o'rin tutadi. Endilikda ulug' ajdodlarimiz yaratib qoldirgan g'oyat boy va rang-barang moddiy hamda ma'naviy meroslar tiklanib, xalqimiz hayotiga yangi mazmun baxsh etmoqda.

Umuman, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar ma'naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladi. Tarixiy madaniy meros, odatda, quyidagi uch guruhga bo'linadi: moddiy madaniyat yodgorliklari; yozma madaniy meros, qo'lyozma manbalar; nomoddiy madaniy meros obyektlari.

Moddiy madaniyat yodgorliklarining muhim qismini arxeologik yodgorliklar, me'moriy inshootlar va xalq amaliy san'ati, badiiy hunarmandchilik buyumlari tashkil etadi. Xalqning boy va rang-barang nomoddiy madaniy merosi ulug' ma'naviyat va ma'rifatga ega bo'lgan xalqning ajdodlarga qoldirgan bebaho xazinasidir [5]. Milliy qadriyatlar o'zbek xalqining qadim va asrlar sinovidan o'tib sayqallanib kelgan bebaho ma'naviy mulkidir.

Nomoddiy madaniy meros odatda quyidagi 6 ta yo'nalishga bo'linadi: 1. So'z san'ati. 2. An'anaviy musiqa. 3. Tomosha san'ati. 4. Raqs san'ati. 5. Milliy hunarmandchilik. 6. Madaniy muhit. Nomoddiy madaniy merosimiz ichida dostonchilik an'analari o'ziga xos o'ringa ega. O'zbek xalqi dostonchiligining "Alpomish", "Guro'g'li", "Ravshanoy" va boshqa qator dostonlari xalqimiz ma'naviyati, jasorati, oriyatining betakror madhidir. Ular ichida "Alpomish" dostoni o'ziga xos o'rin tutadi. "Alpomish" dostoni vatanparvarlikdan saboq beradi.

Markaziy Osiyo xalqlari nomoddiy madaniy merosining yana bir nodir namunasi zardushtiylik ta'limotining muqaddas kitobi "Avesto" hisoblanadi. Zardusht ta'limoti Markaziy Osiyo xalqlari dunyo tarixida birinchilardan bo'lib yakkaxudolik e'tiqodiga amal qilganliklarining yorqin ifodasidir. Zardusht Turon qavmlarining ko'pxudolikka asoslangan



e'tiqodlarini bid'at deb e'lon qiladi [6]. Zardushtning yashagan davri va hududi xususida tadqiqotchilar o'rtasida yagona fikr bo'lmasada, bu borada ilmiy bahslar davom etayotgan bo'lsada, biz faxr bilan ezgulikka asoslangan Zardushtiylik ta'limotining merosxo'rlarimiz deyishga haqlimiz.

Chunki, zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da Axuramazda yaratgan o'lkalar haqidagi tarixiy geografik ma'lumotlar bizga shu huquqni beradi. Undagi ezgu niyat, so'z va ish birligini jamiyat g'oyasi sifatida talqin etish bugungi ma'naviy ideallarimiz bilan uzviy bog'liq [7]. Zardushtiylik ta'limoti xalqimiz ma'naviyatining tarixiy ildizlari naqadar chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanligining yaqqol isbotidir.

O'z targ'ibotini Zardusht (Zaratushtra) she'riy badiha qo'shiqlar vositasida bayon qilgan. Ular "Gat"lar – qo'shiqlar (Goh) deb atalgan. Bu she'riy asarlar "Avesto"ning eng qadimiy, izohlanishi murakkab bo'lgan qismi hisoblanadi [8]. Chunki, Zardusht o'sha davr voqealarini ishoratlar orqali ifodalaydi. Zardushtiylik dini atrofida birlashgan qadimgi jamiyat uchun tushunarli bo'lgan bu ishoratlar mazmuni keyinchalik unitilgan.

Ingliz olimasi Meri Boys qadimgi Yunonistondagi Milet maktabi falsafasi "Avesto", ya'ni zardo'shtiylik ta'sirida shakllanganligini aytadi. U Ioniya'dagi (Qadimgi Yunonistondagi) Milet donishmandlarining falsafiy qarashlariga «ta'sir faqat bir tomonlama, zardo'shtiylik tomonidan bo'lgan», [9] deydi. Qadimdan g'oyalar xalqlarning madaniy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 29 martdagi qarori [10] bilan Urganch shahrida 2001 yil 3 noyabrda "Avesto" kitobining 2700 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. "Avesto"ga bag'ishlangan majmua bunyod etildi. Bu yodgorlik madaniy yodgorliklar ro'yxatiga kiritildi.

Nomoddiy madaniy merosimizning yana bir boqiy namunasi Navro'z bayramidir. O'lmas milliy qadriyatlarimiz ichida Navro'z bayrami muhim o'rin tutadi. Navro'z (fors. yangi kun) – Markaziy Osiyo va O'rta Sharq mamlakatlari xalqlarining qadimiy an'anaviy bayramidir. Turkiy xalqlarda bahorgi teng kunlik bayrami "Yilboshi" deb atalgan. Bu bayramning tarixiy ildizlari rivojlangan bronza davriga, sug'orma dehqonchilik madaniyati shakllangan davrlarga borib taqaladi.

Millatning boy tarixidan ajratib, ming yillar davomida yaratilgan madaniy meros, milliy ma'naviy qadriyatlarni, xususan, adabiyotimiz namunalarini avlodlar hayotidan yo'qotish maqsadida amalga oshirilgan ishlar, umuman yo'qotib bo'lmaganlarini esa mafkuraviy manfaatlar asosida soxtalashtirish yoki noto'g'ri tahlil, talqin qilishlar oqibatida o'tmish adabiy merosimizning nodir namunalari haqida ko'p jihatdan soxta, yuzaki, o'zgacha ruhdagi, ba'zan esa mutlaqo teskari talqin, ta'rif va tasvirlar yuzaga kelib, dunyo fani hamda ijtimoiy fikrida keng tarqaldi.

Alisher Navoiy va boshqa ijodkorlar millatimizning sha'nu sharafiga dunyoga tarannum qilgan so'z san'atkoridir. Ularning ma'naviy merosi chuqur tahlil qilinsa, ularning milliy taraqqiyotimiz uchun ahamiyati ayon bo'ladi. Xususan, Alisher Navoiyning hayotini, ijodiy merosini, xususan tarixiy asarlarini, qolaversa u yashagan davrni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini turli mavzular asosida qiyosiy tahlil qilish, xolisona o'rganish milliy g'oya targ'iboti uchun ham zarurdir. Alisher Navoiyning qaysi janrda yozilgan asari bo'lmasin, mazmun-mohiyatida



tarix aks etgandir [11]. Insoniyat, Vatan tarixini mukammal bilish yosh avlod tarbiyasida muhim sanaladi.

Jamiyat, ijtimoiy-tarixiy birliklar (urug‘, qabila, elat, xalq, millat), ijtimoiy subyektlar qadriyatlar tizimiga ega bo‘ladi. Jamiyat rivojining muayan davri yoki biror davlatda ham qadriyatlar tizimi o‘sha davr uchun meyor vazifasini bajardi. Qadriyatlarning shakllari umuminsoniy, umumsayyoraviy, umumintaqaviy yoki biror kichik hudud bilan bog‘liq. Shu bilan birga, jamiyatda umumijtimoiy va umuminsoniy qadriyatlar ham mavjud. Qadriyatlar tarixiy ong shakllanishida muhim element hisoblanadi.

Qadriyatlar – narsa va voqealar, jamiyat, moddiy-ma’naviy boyliklarning ahamiyatini ifodalovchi tushuncha. G‘arbda qadriyatlarni “Aksiologiya” (“qadriyatshunoslik”) fani o‘rganadi (E.Gartman, P.Lapi). Qadriyatlar axloqiy meyorlar (poklik, ezgulik, vijdon, vatanparvarlik) va ideallardagi baholash mezonlari va usullarni ham aks ettiradi. Qadriyatlar – jamiyatda hurmatga ega kishilar, munosabatlar, moddiy-ma’naviy boyliklar majmuasi. Qadriyatlar tushunchasi muayyan hodisalarning insoniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi.

Qadriyatlar tarix davomida shakllanadi. Taraqqiyot darajasiga ko‘ra uning sifati va miqdori ortishi mumkin. Insoniyat tarixi o‘zi yaratgan qadriyatlar dunyosining boyish va takomillashish tarixidir. Qadriyatlar va qadriyat mezonlari kishilarning xulq-atvorini tartibga solishga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlar. Milliy qadriyatlar millatning tarixi va madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Tarixiy meros va qadriyatlar tarixiy ongni shakllantiradi. Tarixiy ongning yuksalishi natijasiga milliy ong shakllanadi.


Millat – kishilarning barqaror tarixiy birligi, umumiy iqtisodiy turmush va til birligi, madaniyati, ongi va ruhiyatining o‘ziga xosligi zaminida qaror topgan ijtimoiy taraqqiyot shaklidir. Milliy ong – millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e’tiqodi, madaniyati, dunyoqarashi va turli sohalarda faollik darajasi.

Mustaqillikni mustahkamlash va yangi O‘zbekistonni barpo qilish davrida, milliy ong, tarixiy-madaniy merosga va qadriyatlarga tayanib, vatanparvarlik va milliy g‘ururni barchaning qalbiga singdirishda tarixiy tafakkur omilidan foydalanish lozim. Tarixiy ong milliy ongni rivojlantirishda samarali omillardan biridir. Millat o‘z vazifalarini umummilliy g‘oya va mafkura sifatida chuqur anglasa, bu g‘oya va mafkuraning moddiy kuchga, bunyodkorlik omiliga aylanishi samarali bo‘ladi.

Shuning uchun g‘oya va mafkuraning amaliyotini va nazariyasini bir-biridan ajratib bo‘lmaydi [12]. Milliy taraqqiyot g‘oyalarining nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asoslash milliy mafkuradagi maqsadlarning to‘la ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Milliy g‘oya, milliy ong - milliy an‘analari, urf-odatlar va turmush tarzi asosida shakllanadi. Umuminsoniy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan milliy manfaat atrofida ongli ravishda, aql-idrok yo‘rig‘i bilan jipslashgan g‘oya milliy mafkuraga aylanadi va millionlab kishilarni ergashtiradi. Shu jihatdan jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar ham alohida o‘rin tutadi. Erkinlik, tenglik insoniyatning azaliy qadriyatlari bo‘lib qoldi.

Mintaqaviy qadriyatlar iqtisodiyoti, madaniyati, tarixi, tili, urf-odat va an‘analari mushtarak bo‘lgan xalqlar manfaatlariga xizmat qiladigan jamiki moddiy-ma’naviy



boyliklarini, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Qadimdan bir makonda yashagan xalqlar tarixining, ayniqsa bugungi dunyoviy salohiyat va milliy g'urur talab etiladigan davrida mintaqaviy qadriyatlarga e'tiborli bo'lishni taqazo qilmoqda.

Tarixiy-milliy qadriyatlar madaniy-ma'naviy bilimlarni boyitib g'oyaviy-ma'naviy yuksalishga xizmat qiladi. Qadriyatlarning barcha turlari insonning faravon, erkin yashashi, ma'naviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladi. Qadriyatlar o'tmish bilan hozirgi kun o'rtasida vorisiylikni ta'minlaydi, unda millat tarixi, o'tmishi va madaniyati namoyon bo'ladi.

Davlatchilik tuzuklarining yaratilishi mavjud tarixiy merosning siyosiy madaniyat bilan uyg'unlashuvida o'z ifodasini topadi. Masalan, Amir Temurning katta xizmati ajdodlarning axloqiy, tarixiy-madaniy merosiga amal qilishi va uni davlat boshqaruvida tadbqiq etishga qodir bo'lganligi bilan belgilanadi. Ayni paytda, bunday mafkuraning xalq tomonidan idrok etilishi va uni amaliy faoliyatga aylantira olishi edi [13]. Amir Temur davlatchilik siyosatida erishgan yutuqlarining zaminida, avvalo inson manfaatlarining ustuvorligi yotadi.

Xulosa sifatida aytganda, O'zbekiston Respublikasida tarix fani sohasini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi [14] qadimiy tariximizni o'rganish, ilmiy-tadqiqot ishlarini faollashtirish, yosh avlodni milliy qadriyatlar va ajdodlarimizning bebaho merosi asosida tarbiyalash, jamiyatda vatanparvarlik va o'z xalqi bilan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish asosida milliy o'zlikni anglash hissini mustahkamlash va vatandoshlarimiz dunyoqarashini kengaytirish muhim ekanini yana bir bor tasdiqladi.

O'zbekistonning bugungi va kelgusi taraqqiyoti, ko'p jihatdan, o'zbek xalqining ma'naviy-intellektual salohiyatiga bog'liq. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirishda quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratish lozim:


- milliy g'oyani rivojlantirish maqsadida olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari va yaratiladigan adabiyotlarda mamlakatning uzoq va boy tarixi, ma'naviy merosini atroflicha tahlil qilish, mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan yutuqlar, Vatanga sadoqat, yurtimiz obodligi, xalqimiz farovon turmushini ta'minlash, intellektual imkoniyatlarni to'liq ro'yobga chiqarish borasida amalga oshirilayotgan ibratli ishlar, O'zbekiston rivojlanishi va taraqqiyotini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan davlat dasturlari hamda chora-tadbirlarning mohiyatini yoritish;

- ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarining sifati va samaradorligini ta'minlash talablaridan kelib chiqqan holda tegishli vazirlik va idoralar huzurida milliy g'oya fani bo'yicha o'qituvchilar, targ'ibotchilar hamda soha mutaxassislari malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazlarini tashkil etish;

- milliy g'oyani rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, nazariy tadqiqotlarni amalga oshirish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida g'oyaviy-mafkuraviy mavzularga e'tiborni kuchaytirish;

- milliy yuksalish g'oyasini anglashda va targ'ib qilishda tarixiy ong va tafakkur omilidan samarali foydalanish lozim.

Yuksalish g'oyasining tamoyillari taraqqiyot strategiyasining bosh g'oyasiga asoslanadi, uni fuqarolar qalbiga singdirishga xizmat qiladi.



Adabiyotlar

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 22 dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr.
2. Bolinbrok L. Pisma ob izuchenii istorii i yeye poleznosti. –Moskva, 1978. –S.25.
3. Qo'chqorov V. Milliy tiklanish va o'zlikni anglash. –Toshkent, 2004. –B. 22.
4. Milliy taraqqiyotning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari. Mas'ul muxarrir: A.O'tamurodov. – T., 2008. B. 68.
5. O'zbekiston tarixi va madaniyati. Mualliflar jamoasi. –Toshkent: Tafakkur, 2011. –B. 233.
6. Ishoqov M. Zardusht mashaqqati va islom haqiqati // Guliston, 2003. № 1. –B. 29.
7. Mavlonov O'., Abduvosidova I. Tarixiy-madaniy meros – milliy g'oyani anglash omili. – Toshkent: Akademiya, 2014. –B. 44.
8. Avesto. –Toshkent: Sharq, 2001. –B. 5.
9. Vous M. A. History of zoroastrianism, V. 1. leiden - Koln, 1982, -R. 153.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 29 martdagi "Avesto"ning 2700 yiligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish haqida"gi Qarori // "Xalq so'zi", 2000 yil 30 mart.
11. Ernazarov Sh. Milliy g'oyani targ'ib qilishda Alisher Navoiy asarlarining ahamiyati // O'zMU xabarlar, 2021, 1/5-son. -B. 170.
12. Milliy taraqqiyotning g'oyaviy-mafkuraviy asoslar. Mas'ul muxarrir: A.O'tamurodov. –T., 2008. B. 76.
13. Alimardonov T. Amir Temur imperiyasi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. –B. 310.
14. O'zbekiston Respublikasida tarix fani sohasini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. // <https://regulation.gov.uz/uz/d/31751>